

МАКТАBGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY-ESTETIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING SHART SHAROITLARI.

Qo‘qon Davlat Universiteti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha ta’lim)mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Xoshimova E’zoxon Xayotjon qizi.

ezoxon.uzaqova1991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida axloqiy va estetik tarbiyaning bola shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinib, maktabgacha ta’lim muhitida ushbu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari axloqiy-estetik tarbiyani samarali tashkil etish bolalarda ijobiy xulq-atvor, estetik did va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy-estetik sifatlari, pedagogik shart-sharoitlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются педагогические условия формирования нравственно-эстетических качеств у детей дошкольного возраста. В ходе исследования проанализировано значение нравственного и эстетического воспитания в развитии личности ребенка, а также определены факторы, способствующие формированию данных качеств в условиях дошкольного образовательного учреждения. Результаты исследования подтверждают, что целенаправленная организация нравственно-эстетического воспитания

способствует формированию положительного поведения, эстетического вкуса и социальной активности детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, нравственно-эстетические качества, педагогические условия.

ABSTRACT

This article examines the pedagogical conditions for the formation of moral and aesthetic qualities in preschool children. The study analyzes the importance of moral and aesthetic education in the development of a child's personality and identifies factors that contribute to the development of these qualities in the preschool educational environment. The research findings indicate that effective organization of moral and aesthetic education promotes positive behavior, aesthetic perception, and social activity in children.

Keywords: preschool education, moral education, aesthetic education, moral and aesthetic qualities, pedagogical conditions.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, bolalarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy va estetik sifatlarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash — zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi hujjatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, axloqiy-estetik fazilatlarni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunida maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarning jismoniy,

aqliy, ma'naviy va estetik jihatdan rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlash ekani qayd etilgan.

Shu jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki axloqiy me'yorlar va estetik did aynan erta yosh davrida bolaning kundalik faoliyati, o'yinlari, muloqoti hamda tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni orqali singdiriladi. Shuningdek, bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish jarayoni tizimli va uzluksiz tashkil etilishini talab etadi. Ta'lim jarayonida badiiy adabiyotlar, musiqiy mashg'ulotlar, tasviriy san'at, milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat.

АДАБИЙОТЛАР ТАҲЛИЛИ

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning axloqiy va estetik sifatlarini shakllantirish masalasi pedagogik adabiyotlarda turli jihatlardan yoritilgan. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova va M.N. A'zamova¹ asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axloqiy va estetik tarbiya vazifalari va ularni samarali tashkil etish shart-sharoitlari keng yoritilgan. Mualliflar bolalarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida tarbiyachining roli, ta'lim jarayonida ijodiy va didaktik o'yinlar orqali axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning samarali usullari haqida batafsil fikr yuritishgan.

Sh. Sodiqova² asarida esa maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik did va axloqiy me'yorlarni rivojlantirishning amaliy usullari ko'rib chiqilgan. Muallif ta'lim jarayonida badiiy adabiyot, musiqa va tasviriy san'atning ahamiyati, shuningdek,

¹ Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.

² Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017.

tarbiyachining shaxsiy namuna sifatidagi rolini alohida ta'kidlaydi. M.N. Norbosheva³ tuzgan ma'ruzalar matnidamaktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Muallif ijodiy mashg'ulotlar, tasviriy va badiiy o'yinlar orqali bolalarda estetik va axloqiy fazilatlarini shakllantirishning samarali usullarini taklif qiladi.

Ushbu adabiyotlarni tahlil qilganda ko'rish mumkinki, axloqiy-estetik tarbiya maktabgacha ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Barcha mualliflar ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli va uzluksiz tashkil etish, ijodiy va didaktik mashg'ulotlarni samarali qo'llash, tarbiyachining shaxsiy namuna sifatidagi rolini oshirish muhimligini qayd etadilar. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ushbu masalani maktabgacha yoshdagi bolalarda shart-sharoitlarni tizimli shakllantirish jihatidan yanada chuqur o'rganishni talab qiladi.

NATIJALAR.

Tadqiqot Qo'qon shahridagi maktabgacha ta'lim tashkilotining katta guruhlarida olib borildi. Tadqiqotga jami 50 nafar bola jalb qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — bolalarda axloqiy va estetik sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish edi.

Kuzatuv va tajriba mashg'ulotlari natijasida bolalarda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlangan:

Axloqiy me'yorlarni tushunish — 80%

Estetik didni namoyon qilish — 76%

Ijodiy faoliyatdagi faollik — 70%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, katta guruh bolalari orasida axloqiy me'yorlarni tushunish eng yuqori darajada rivojlangan. Bu bolalarning kundalik faoliyatda to'g'ri va axloqiy xulq-atvorni namoyon qilayotganini bildiradi. Shu bilan birga, estetik didni namoyon qilish 76% ni tashkil qilib, bolalarning san'at, musiqa va tasviriy mashg'ulotlarga qiziqishi yuqori ekanini ko'rsatadi. Ijodiy faoliyatdagi faollik 70%


³ Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тўзувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018

bo'lib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yaratilgan shart-sharoitlar samarali ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida kuzatildi, bolalarning axloqiy-estetik fazilatlari tarbiyachining faol ishtiroki, didaktik va ijodiy o'yinlar, badiiy mashg'ulotlar orqali sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan samarali hamkorlik bolalarning axloqiy-estetik fazilatlari shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy namuna sifatidagi roli, mashg'ulotlarning mazmuni va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish eng muhim omillar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash imkonini berdi.

Quyidagi doira diagrammasi ushbu natijalarni ifodalaydi:



MUNOZARA

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, Qoqon shahridagi katta guruh bolalari orasida axloqiy me'yorlarni tushunish eng yuqori (80%), estetik did 76%, ijodiy faoliyatdagi faollik esa 70% ni tashkil etdi. Bu bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishda tarbiyachining faol ishtiroki va pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar ham ijodiy mashg'ulotlar va badiiy faoliyatlar bolalarning axloqiy-estetik sifatlarini rivojlantirishda samarali ekanini tasdiqlaydi

Shuningdek, tadqiqot natijalari bolalarning fazilatlarini shakllantirishda oilaviy va ijtimoiy muhit bilan hamkorlik muhimligini ko'rsatadi. Shu bois, maktabgacha ta'limda axloqiy-estetik tarbiyani samarali tashkil etish uchun: tarbiyachilarning kasbiy mahorati, mashg'ulotlarning ijodiyliigi va oilaviy hamkorlik zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoqon shahridagi katta guruh bolalari orasida axloqiy-estetik sifatlar yuqori darajada shakllangan. Bolalarning axloqiy me'yorlarni tushunishi, estetik didi va ijodiy faoliyati tarbiyachilarning faol ishtiroki, ijodiy mashg'ulotlar va pedagogik shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan samarali hamkorlik bolalarning axloqiy-estetik fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta'limda axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishda tarbiyachilar malakasini oshirish, mashg'ulotlarni ijodiy va didaktik o'yinlar bilan boyitish, hamda oilaviy hamkorlikni mustahkamlash zarurligi xulosa qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. — 2019-yil 16-dekabr, O'RQ–595-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-martdagi PQ–167-son qarori "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ–3305-son qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
4. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., Azimova M.N. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: "Tafakkur", 2022.

5. Saidahmedova N.M. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2023.
6. Rajabova Sh.S. Bolalarda estetik tarbiya asoslari. — Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2021.
7. Karimova D.A., Jo‘rayeva M.M. Ilk yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiya metodikasi. — Toshkent: “Ziyo”, 2022.
8. Xolmurodova N.I. Maktabgacha ta’limda badiiy-estetik tarbiya jarayoni. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
9. Raximova D.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali ijodkorlikni rivojlantirish. — Toshkent: “Fan va ta’lim”, 2023.
10. Yusupova M.N. Maktabgacha ta’lim jarayonida teatr faoliyatining o‘rni. — “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, №2, 2021.
11. Nazarova Z.G. Bolalarda axloqiy-estetik tarbiyaning psixologik asoslari. — “Pedagogik izlanishlar” jurnali, №4, 2022.
12. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy-estetik tarbiya konsepsiyasi. — Toshkent, 2023.
13. M.Norbosheva. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyat asoslari. /Maruzalar matni. Termiz DU, 2018. – 14-35-b